

HASANXOJA NISORIY IJODIDA NAVOIYGA MUNOSABAT

Maxbuba Muxammadova

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” tazkirasida Navoiy obrazi, Navoiy shaxsining ochilmagan qirralari, adibning ilmiy salohiyati chuqur yoritilgan. “Tazkira”da Afsoriy, Fazoiy, Amir Haydar kabi ijodkorlar sarlavhasi ostida Navoiy haqidagi bir qancha qiziqarli va yangi ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Navoiy, Hasanxoja Nisoriy, Muzakkiri ahhob, Afsoriy, Fazoiy, Amir Haydar.*

Navoiy siymosi har qanday zamonda ham o’zining ulug’vorligi, sharq adabiyoti olamining dahosi sifatida olimlar tomonidan takror va takror o’rganiladi. Zero, bu zot ma’naviy xazinasining bitmas-tuganmas sinoatlari, mazmun-mohiyati, ilmiy va badiiy ahamiyati hali ko’p o’rganishga va e’tirof etishga loyiq. Adabiyotshunos olim Otabek Jo’raboyev o’zining “Tarixda Navoiy siymosi” maqolasida XX asrga qadar Navoiy haqida yozilgan asarlarni shartli ravishda uchga bo’ladi. Bular: 1) maxsus Navoiyga bag’ishlangan asarlar; 2) doston va tarixiy asarlarda Navoiyga bag’ishlangan bob yoki o’rinlar; 3) tazkira va ilmiy asarlar.

Olim birinchi toifadagi asarlarga G’iyosiddin Humomiddin Xondamir (1475–1535)ning “Makorim ul-axloq”, Sulton Husayn mirzoning “Risola”si singari maxsus asarlari, Mavlono Fasihiddin Sohibdorong katta hajmli tarkibbandi, Davlatshoh Samarqandiyning mulamma’ (o’zbekcha-forscha) qasidasi, Xondamir, Sulton Ibrohim Amoniy, Fasihiddin Muhammad Nizomiy Oxund, Kamoliddin Sulton Husayn, Mavlono Darvish Ali, Atoulloh Roziy, Amir Burhoniddin, Mir Husayn Muammoiy, Darvish Ali tabib, Qozi Ixtiyoriddin, Mir Burhoniddin Atoulloh kabilarning Navoiyga bag’ishlangan ta’rixlarini misol qilib keltiradi.

Ikkinchi toifa asarlarga Abdurahmon Jomiyning “Fotihat ush-shabob” devoni, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” dostonlari, Muhammad ibn Xovandshoh Mirxond (1433–1498) ning “Ravzat us-safo fi siyar il-anbiyo val-muluk val-xulafo” (Nabiylar, maliklar va xalifalar tarjimai holida soflik bog’i), Xondamirning “Xulosat ul-axbor fi ahvol il-axyor” (Xayrli kishilar ahvolidagi jahon xabarlarining xulosasi), Zahiriddin Muhammad Boburning (1483–1530) “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiyning (1486–1566) “Badoye ul-vaqoye”, Muhammad Haydar mirzoning (1503–1551), “Tarixi Rashidiy”, Abdulmo’minxon ibn Abdullaxon (1598 yili vafot etgan) ning “Tom ut-



tavorix” singari asarlari tilga olingan. Bu asarlar garchi ma’lum kishilarga va mavzularga bag’ishlangan bo’lsa-da, ammo ko’p o’rinlarda Navoiy nomining tilga olinishi bilan uning tarixiy siymosiga aniq chizgilar tortadi.

Uchinchi xil asarlar, ya’ni tazkira va ilmiy asarlar ham adadi jihatdan birmuncha. Davlatshoh Samarqandiyning (1435–1495) “Tazkirat ush-shuaro”, Faxriy Hiraviyning (1497–1559) “Ravzat us-salotin”, Hasanxoja Nisoriyning (1516–1597) “Muzakkiri ahbob”, Sodiqbek Sodiqiyning (1533–1610) “Majma ul-xavois”, Sharafiddin Roqimiyning (XVII asr) “Tarixi tom” asarlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari Abdulloh Hotifiyning “Layli va Majnun”, Husayn Voiz Koshifiyning “javohir ut-tafsir”, Atoullah Asiliyning “Ravzat ul-ahbob” asarlari ham A.Navoiy haqida ma’lumot beruvchi qimmatli adabiy manbalardan bo’lib shoir ijodi va biografiasini muqoyasa qilib o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Navoiyshunoslar Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatovlar shoir haqida ma’lumot beruvchi ilk manba sifatida Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sad’ayn va bahrayn” asarini ta’kidlashsa, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sini Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazkira deya e’tirof etishadi. Ta’kidlash zarur, tazkiranavislar Alisher Navoiy siymosini har birlari ayri-ayri tasvirlashga uringanlar. Ammo barining mohiyatida ulug’ shoirning iste’dod ko’lami, insonparvarlik xislatlari, adabiy xazinasini va uning qimmatini tarannum etilgan.

Bizga Alisher Navoiy haqida qimmatli ma’lumot beruvchi asarlardan yana biri Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasidir. Tazkira fors tilida 1566-yilda avgust-noyabr oylarida yozilgan bo’lib Abdullaxon II ga bag’ishlangan. Ushbu tazkira Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asariga havas ortidan yaratilgan. Hasanxoja Nisoriy ham Alisher Navoiyga ayri-ayri ixlos bilan qaraydi. Navoiy ijodini hurmat qiladi va unga ergashadi. Bizgacha yetib kelgan yagona “Muzakkiri ahbob” (“Do’sklar yodnomasi”) tazkirasida ham Navoiyni bot-bot tilga oladi va Nisoriyning shoirga nisbatan o’zgacha mehri sezilib turadi.

Hasanxoja qadar yaratilgan adabiyotlarda ham Navoiy ko’p marotaba vasf etilgan. Nisoriy ulardan farqli ravishda, garchi Navoiy nomini sarlavhaga olib chiqmasada, ammo asarning ko’p qismida Navoiyning qilgan ezgu ishlarini, adabiy mahoratini tez-tez yodga oladi. Bundan ko’rinadiki, Nisoriy Navoiy shaxsiga va ijodiga juda qiziqqan. Shu bois uni adabiyot olamidagi “eng buyuk shaxs” sifatida e’tirof etgan. Yozuvchi buni ayniqsa tazkiraning boshida, asarning yozilish sabablari va tarixida yana bir karra isbotlaydi. U “Muzakkiri ahbob”ni Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” va Navoiyning “Majolis un-nafois”laridan keyingi uchinchi tazkira deya ataydi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari Husayn Boyqaroga qadar o’tgan shoirlar zikrini madh etsa, “Majolis



un-nafois” da Husayn Boyqaro tug‘ilganidan to vafotiga qadar istiqomat qilgan adabiyot vakillari yod etilgan. “Muzakkiri ahbob” esa Nisoriy ta’biri bilan aytganda, shu tazkiralarning bevosita davomi bo‘lib unda Navoiydan keying ijodkorlar nomi tilga olinadi. Tazkirada bu haqida shunday deyiladi: *“...ayrim vafolik inilar safolik o‘rtog‘lar bu yo‘qsil, ojiz kaminaga, “...amir Alisherning “Majolis un-nafois”idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va ularning yoqimli nafasleri isini toliblarning jon dimog‘iga yetkazib, “uchinchisini yaratmasak ikkitasi ham yo‘q edi” hadisi mazmuniga muvofiq siz tomondan uchinchi bir tazkira vujudga kelsa, uning mutolaasi esa har jihatdan tiriltirish asarli va o‘tganlar ahvolini bildiruvchi bir ilmga aylangusidir”...” deb buyurdilar.* [1,12] Bundan ko‘rinadiki, Nisoriy Navoiy shaxsini behad ulug‘lagan va tazkiranavislikda Navoiyga o‘zini izdosh bilib undan keyin yuzaga kelgan barcha she’riyatga ixlosmandlarni o‘z tazkirasida bayon qilgan.

“Muzakkiri ahbob” I bob 4 faslida Navoiyning jiyani Amir Haydar Alisherning muqaddas yodida Navoiy ta’rifi to‘laroq ochib beriladi. Ta’rif Abdurahmon Jomiyning Navoiy haqidagi maqtovlarni misol keltirish bilan boshlangan va bu parcha Navoiyning nazm ahli orasidagi o‘rni va mavqeyini ham aks ettiradi: *“Nazmi gavhari shu qadar ulug‘vorki Nazm dengizining hech bir sadafi, unga teng kelolmaydi va she’r mulkining hech bir maqomi uning balandligi sharafini topa olmaydi.”* [1,134]

Nisoriyning o‘zi shoir haqida bunday deydi: *“Garchi tabiatining quvvati va qobiliyatining kengligi har ikki xil -turkiy va forsiy she’rga muyassar bo‘lsada, ammo tabining mayli forsiydan ko‘ra turkiyga ko‘proqdir. Aning g‘azallari mazkur tilda o‘n ming baytdan ko‘proq va Nizomiyning “Xamsa”si muqobilida vujudga kelgan masnaviyoti 30 ming baytga yaqindir. Shuning uchun o‘sha tilda undan ko‘proq va yaxshiroq qilib hech kim she’r aytmagan va nazm gavharini sochmagan...”* [1,134]

Chindan ham Navoiy har ikkala tilda bimalol ijod qila olgan, ammo mayli ko‘proq turkiyga moyil bo‘lgan. Bu tilda 40 mingdan ziyod bayt bitgani bois ham Nisoriy Navoiyni turkiy tilning ustoz sifatida ulug‘laydi. Boburning “Boburnoma” asari va mazkur tazkiradagi ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak shoir turkiyda go‘zalroq va mukammalroq ijod qilgan. Buning isboti sifatida biz Alisherning ko‘proq Navoiy taxallusi bilan tilga olinishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Buyuk shoirga bag‘ishlab yozilgan o‘ndan ortiq asarlarda u asosan shu taxallus bilan tilga olinadi. Navoiyning bolalikdagi do‘sti, shoh va shoir Husayn Boyqaro o‘zining “Risola” sida *“Mir Alisher turk tilining o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi”* deya shoir ijodiga yuksak baho beradi va uni turkiy tilni qayta tiriltirgan shaxs sifatida e’tirof etadi.



Nisoriy Navoiy haqida gapirar ekan, she'rdagi taxallusi, nomi, kuniyasi manavi muammoda tilga olib o'tilganini qayd etadi.

Muammo:

Kunavu nomash dar taxallusxo nayobad hech kas,
Bar labi yobandagon az vay Navoe donu bas.

(Mazmuni:

Kuniyasi va nomini topa olmas hech kim,
Axtaruvchilar labiga undan bir Navo bil bas). [1,134]

Muammoning kimga tegishli ekani, uning muallifi haqida tazkiranavis hech qanday ma'lumot bermagan.

Nisoriy Alisher Navoiyni o'ziga ma'naviy ustoz va yo'lboshchi deb bilgan. Tazkirada hazrat Navoiy Nisoriyning tushiga kirganligi va undan "Bizning ash'orimizdan biror nima yod bilurmisan?" deb so'raganini aytadi. *"Faqir alarning ushbu sharif maqta'sini o'qidim. Maqta:*

*Ey Navoiy, sen kimu mehrobu masjid istamak,
Qaydakim xublar oyog'in qo'ysa sen boshingni qo'y."* [1,135]

Shundan so'ng Nisoriy hazrat Navoiyning iltifot qilib unga bir matla' o'qiganini, bu matla'da biror ishda unga xalal yetsa, Mirning ruhi unga madadkor bo'lishi haqida so'z yuritadi. [1,135]

Navoiy haqidagi ma'lumotlar mazkur asarning II bobi 1-faslida Mavlono Afsariy ta'rifida ham keltirilgan. Tazkiranavis Afsariy haqida gapirarkan, uni Alisher Navoiyga havas qilgani, she'rlariga tatabbu bitishga tirishgani, o'zini ikkinchi Navoiy bilib shu xayol ortidan o'ziga Soniy, ya'ni "ikkinchi" deb taxallus qo'yib olishini aytadi va o'zining quyidagi misrasi bilan Afsariyni keskin tanqid qilib, uni Navoiydek buyuk zotga hatto yaqinlasholmasligiga ishora qiladi.

"Misra: Zi ka'ba to sari kuyat hazor farsang ast. -Ka'ba bilan sen turgan mahalla orasida ming farsang masofa bor." [1,164]

Misralardan anglashiladiki, Nisoriy Navoiyni juda ulug' zot sifatida ardoqlab ka'baga qiyoslaydi va bu darajaga har kim ham yetish olmasligini aytadi.

"Muzakkiri ahbob" tazkirasining II bob 3-faslida Mavlono Fazoiy ta'rifida qiziq bir ma'lumotga duch keldik. Unda aytilishicha, Fazoiy Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da kamongarlikka nisbat bergan Baqoiyning o'g'li bo'lgan.

"Mavlono Baqoiy-kamongarlikka mashhur va o'zini muammoiqliqqa ham shuhrat berdi. Ammo faqir hargiz andin muammoki, nimaga yaragay, eshitmadim. So'ngra she'r ayta boshladi. Ammo g'arib xayollar qilur, ammo tarkibni resh bog'lar. Derlarki tirandozlik fanida sohib vuqufdir, biz bilmashbiz." [2, 47]



Nisoriy “Muzakkiri ahbob” da Baqoiy bilan ko’rishganini va u bilan suhbatda bo’lganini aytadi. U Baqoiydan “ne sababdin bu kasb nomini olmishlar” deb so’raganida, Baqoiy aslida bu sohada san’ati yo’qligini, mazkur laqab amir Alisher tomonidan unga taqilganini eslaydi. Mazkur ma’lumotlardan ko’rinadiki, aslida Baqoiy “Majolis”da e’tirof etilganidek mashhur kamongar bo’lmagan. Navoiy Baqoiyga hazil tariqasida taqqan ushbu laqabini “Majolis”da ham keltirib unga shu kasb sohibi sifatida shuhrat keltiradi. Bu o’rinda e’tiborga molik muhim jihat shuki-Navoiy tabiatidagi hazil va beg’araz hajvga moyillik Nisoriy tomonidan yana bir bora kashf etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳасанхожа Нисорий. Музаққирӣ аҳбоб. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
2. Алишер Навоий. Маҷолис ун-нафоис. WWW.Ziyouz.com.kutubxonasi.
1. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.
3. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
4. Mahbuba M. Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati //Karabük-2020.
5. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – С. 29.
6. Mo'minovna M. M. NISORIY DO 'ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 348-350.
6. Makhbuba M. "Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – Т. 7. – №. 10. – С. 111-116.
7. Sanobar A., Mahbuba M. O'LMAS UMARBEOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 74-80.
8. O'roqova, N. (2024). ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.



9. O'roqova, N. (2024). SADRIDDIN AYNIY USLUBIGA DOIR SHIZGILAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 47(47). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188

10. O'roqova N. O 'ZBEK SHE'RIYATIDA KAPALAK OBRAZI TALQINI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*). – 2024. – Т. 47. – №. 47.

11. Yorievna, U. N. ., & Ikhtiyar's , K. N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>

12. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5 Special Issue 3), 396-399.

13. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.

14. Uroкова, N. (2022). MASNAVI IN MODERN UZBEK PROSE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(3), 63-65.

15. Yorievna, U. N. (2022). Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 67-70.

16. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 18, 20-23.

17. Уракова, Н. (2019). Стиль писателя в современных узбекских поэмах. *International scientific review*, (1 (41)), 26-28.

18. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.

19. O'roqova, N. (2019). So'nggi yillar o'zbek dostonchiligida ijodkor uslubi va individualligi (I. Otamurod va U. Qo'chqor dostonlari asosida). *Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi*, Qarshi, 2019. B, 21

20. Yoriyevna, U. N. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS. *Confrencea*, 8(1), 123-126.

21. Yorievna, U. N. ., & Ikhtiyar's , K. N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>

22. O'roqova , N. . (2022). O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA MASNAVIY JANRI TABIATI, GENEZISI, XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал социальных*



наук, философии и культуры, 2(10), 38–42. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4041>

23. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.

24. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.

25. Tursunovna S. D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 14.

26. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.

27. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.

28. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.

29. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.

30. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

31. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

32. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

33. Raxmatovna T. U., Zaripovna R. R. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – Т. 10. – №. 2S. – С. 3454-3459.



34. Toraeva U. R. Definition and research methods of Uzbek modern literature //Current research journal of philological sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 104-107.

35. Turaeva U. R. Determination of characteristics of Uzbek jadid schools and literature //наука и инновации в ххi веке: актуальные вопросы, открытия и достижения. – 2021. – С. 154-156.

36. Rakhmatovna T. U. UDC: 82.09. 575.1 Literary critic begali kasimov is a researcher of modern literature //scientific reports of bukhara state university. – С. 114.

37. Rakhmatovna T. U. Research of heritage of representatives of Uzbek literature of the period of national renaissance //principal issues of scientific research and modern education. – 2022. – Т. 1. – №. 7.

38. Torayeva U. The Tatar press and Turkestan Jadidism In The researches of Begali Kasimov //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.

39. Torayeva U. O'zbek jadid adabiyoti va jahon ijtimoiy-adabiy harakatchiligi masalasining tadqiq etilishi //Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 206-211.

40. Raxmatovna T. U. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 869-875.

41. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 629-634.

42. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, 7(1), 779-783.

43. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 22-25.

44. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.

45. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(22), 66-70.



46.Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).

47.To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).

48.Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.

49.Saidahmedovna, Uraeva Darmon, and RustamovaGavharBahronQizi. "Beliefs About the" Tree of Life" in Uzbek Folklore." *MiddleEuropeanScientificBulletin* 8 (2021).

50.Darmon U., Rano R., Dilshod R. The Stylization of Prose Tales in Uzbek Children's Literature //Religación. – Т. 4. – S. 170-174.

51.Saidakhmedovna, U. D., & Abdumalikovna, T. D. (2023). Ceremonial Dishes in Uzbek Language. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 15, 35-38.

52.Saidakhmedovna, U. D. (2022). Artistic Interpretation of Guests and Hospitality in Uzbek Literature. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 155-157.

53.Oxunjonovna, S. H. The crow, the owl, the raven, the slice, which turned your flowers.(one of the example create of Samandar Vohidov). *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*, 6, 211-216.

54.Oxunjonovna, H. S. (2022). Parents Double Wings to the Child. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.

55.Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). Comparative analysis of mythological names and mythologisms in the english and uzbek literature. *Philology Matters*, 2021(1), 3-21.

56.Saidjanovna, U. D., & Rustamovna, Y. G. (2022). THE ANALYSES OF CHRONOTOPE OF THE ROAD IN JOHN STEINBECK'S NOVEL "THE GRAPES OF WRATH". *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(9), 46-48.

57.Абдуллаева Қ. Нутқ ўстириш. Бошланғич синф ўқитувчилари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 118 б.

58.Мамажонов С. Шоир дунёси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б.143.

59.Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1980. – 4-сон. – Б.44.



60.Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. Таниқли болалар шоири, Ўзбекистон халқ шоири, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ўқитувчи, Ҳамза номидаги Республика Давлат мукофоти совриндори Қуддус Муҳаммадий сиймосига чизгилар. – Тошкент: Муסיқа, 2011. – Б.64.

61.Ғафуров Собит. Топағон бола: тез айтишлар, хандалар, топишмоқлар. (Мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун). – Тошкент: Юлдузча, 1988. – 46 б.

62.Nabijon Ermat. 100 topishmoq va tez aytishlar. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – В.33-43.

63.Nabijon Ermat. 99 tez aytishva topishmoqlar. – Toshkent: Muharrir, 2019. – В.

64.Darmon, Uraeva, Rajabova Rano, and Rajabov Dilshod. "The stylization of prose tales in Uzbek children's literature." *Religación: Revista de Ciencias Sociales y Humanidades* 4.18 (2019): 170-174.

65.Rajabova, Rano. "Ўзбек Болалар Адабиётида Фольклор Жанрлари Стилизацияси." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).

66.Rajabova, Rano. "Адабий топишмоқларда халқ топишмоқларига хос жанрий белгиларнинг ифодаси." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 3.3 (2021).

67.Raxmatovna, Torayeva Umriniso, and Rajabova Rano Zaripovna. "Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.2S (2023): 3454-3459.

68.Rajabov, Dilshod Zaripovich. "Radif in uzbek folk songs." *Theoretical & Applied Science* 10 (2018): 316-318.

69.Juraev, Mamatkul, Dilshod Rajabov, and Shahodatbonu Imomnazarova. "WEDDING SONG GENRE IN THE CEREMONY LYRICS OF THE CENTRAL ASIAN TURKISH PEOPLES." *Theoretical & Applied Science* 7 (2020): 467-473.

70.Rajabov, Dilshod Zaripovich. "O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA RADIFNING IFODA SHAKLLARI." *Konferensiyalar| Conferences*. Vol. 1. No. 4. 2024.

